



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 30.04.2025
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI IJTIMOYIY SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Tohirjonova Xumora Azizbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakuleti Pedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Uzbekistan

adpi@edu.uz

Annotatsiya. Boshlang'ich ta'lim bosqichi – bu nafaqat ta'lim jarayoni, balki shaxsning jamiyatga kirib borishida muhim poydevor bo'ladigan davrdir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy shakllantirishning mazmuni, uning pedagogik jihatdan asoslangan tamoyillari va ta'lim-tarbiyada qo'llaniladigan samarali metodlari tahlil etiladi. Muallif o'quvchining ijtimoiy rivojlanishida o'qituvchining tutgan o'rniga alohida to'xtaladi, o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda rolli o'yinlar, guruh ishlar va tarbiyaviy suhbatlarning ahamiyatini yoritadi. Maqola boshlang'ich ta'lim tizimida ijtimoiy tarbiya jarayonini chuqurroq o'rganishga qaratilgan bo'lib, amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, ijtimoiy shakllanish, pedagogika, ijtimoiy ko'nikmalar, o'qituvchi roli, axloqiy qadriyatlar, jamiyatga moslashuv, pedagogik metodlar, tarbiyaviy faoliyat, ijtimoiy faoliyat, rolli o'yinlar, oila-maktab hamkorligi, insoniy fazilatlar, muloqot madaniyati.

Аннотация: Начальный этап образования — это не только процесс обучения, но и важный фундамент вхождения личности в общество. В данной статье рассматривается содержание

социального формирования учащихся начальных классов, его педагогически обоснованные принципы, а также эффективные методы, применяемые в учебно-воспитательном процессе. Автор акцентирует внимание на роли учителя в социальном развитии школьников, а также раскрывает значение ролевых игр, групповой работы и воспитательных бесед в формировании социальных навыков у младших школьников. Статья ориентирована на углублённое изучение процесса социальной воспитательной работы в системе начального образования и дополнена практическими рекомендациями.

Ключевые слова: Начальное образование, социализация, педагогика, социальные навыки, роль учителя, моральные ценности, адаптация в обществе, педагогические методы, воспитательная деятельность, социальная активность, ролевые игры, сотрудничество школы и семьи, человеческие качества, культура общения.

Abstract: The primary education stage is not only an educational process, but also a period that serves as an important foundation for a person's entry into society. This article analyzes the content of the social formation of primary school students, its pedagogically based principles and effective methods used in education. The author specifically focuses on the role of the teacher in the social development of the student, highlights the importance of role-playing games, group work and educational conversations in the formation of social skills in students. The article is aimed at a deeper study of the process of social education in the primary education system and is enriched with practical recommendations.

Keywords: Primary education, social formation, pedagogy, social skills, the role of the teacher, moral values, adaptation to society, pedagogical methods, educational activity, social activity, role-playing games, family-school cooperation, human qualities, culture of communication.

Language: Uzbek

Citation: Tohirjonova , X. (2025). PEDAGOGICAL BASIS OF SOCIAL FORMATION OF PRIMARY STUDENTS. Universal International Scientific Journal, 2(4), 314–320. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1766>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15352344>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohatlar mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol

avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan. Mustaqillikni mustahkamlash uchun olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy sohalardagi islohatlar inson

huquqi va erkinliklarini himoya qiluvchi demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etishni ko'zda tutadi. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning bosh maqsadi ham insonning moddiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bunday mashaqqatli murakkab yo'lda bizga doimo mash'ala bo'ladigan, yo'limizni charog'on yoritib turadigan ota-onalarimiz, bobolarimiz, ajdodlarimizning ibratli hayot saboqlari bor. Milliy qadriyatlarni tiklash, ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa sharqona odob-ahloq an'alariga e'tiborni kuchaytirish shular jumlasidandir. Yoshlarning ta'lim-tarbiyasi doimo dolzarb muammo sifatida e'tirof etiladi. Uning ikkinchi muhim jihati esa yoshlarning ijtimoiy-huquqiy ongini shakllantirishda huquqiy tarbiyaning rolidir. Inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bu – maktab davri, xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichidir. Aynan shu davrda shaxsning poydevori, uning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va jamiyatga munosabati shakllana boshlaydi. Shuning uchun ham pedagogika va psixologiyada boshlang'ich sinf yoshi maxsus davr sifatida alohida o'rganiladi. Bu davrda nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy, ijtimoiylashuv

jarayonlarini to'g'ri tashkil etish o'ta muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy shakllanish deganda shaxsning atrofdagi insonlar, ijtimoiy muhit, madaniyat, axloqiy-me'yoriy qadriyatlar ta'sirida ongli ravishda jamiyatga moslashuvi tushuniladi. Bolaning ijtimoiy hayotga kirib borishi, jamiyatning faol a'zosiga aylanishi aynan boshlang'ich sinf davrida kuchli sur'at bilan kechadi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan nafaqat didaktik bilim berishni, balki tarbiyaviy mahoratni, pedagogik sezgirlikni va metodik yondashuvni talab qiladi.

Bugungi globallashuv, tezkor axborot oqimi, raqamli texnologiyalar ta'sirida yosh avlodni ijtimoiy-axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash zamonaviy ta'limning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Ayniqsa, maktabga endigina qadam qo'ygan kichik yoshdagi bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishini uyg'un holda tashkil etish – pedagogik faoliyatning markaziy yo'nalishlaridan biridir.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy shakllantirish jarayonining mohiyati, uning pedagogik asoslari, o'qituvchining o'rni va ta'lim-tarbiya jarayonidagi samarali metodlar

xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtayi nazaridan ijtimoiy shakllanish jarayonining ahamiyati tahlil qilinadi.

“Ijtimoiy shakllanish” atamasi pedagogik va psixologik fanlarda shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy rollarni anglash va ularni bajarishga tayyorlik sifatida izohlanadi. Bu jarayon shaxsning ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlanishini, jamiyatdagi qadriyatlar va me’yorlarni o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Boshlang‘ich sinf davrida bu jarayon ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki:

• Bola ilk bor oiladan tashqarida muhim ijtimoiy muhit – **maktab jamoasiga** kirib keladi;

• Maktab – bolani nafaqat o‘qitadi, balki jamiyatga ijtimoiy tayyorlaydi;

• Bu davrda shaxsning axloqiy qadriyatlarini, me’yorlari, o‘z-o‘zini baholash va boshqalarni tushunish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari — bu 6 dan 10 yoshgacha bo‘lgan bolalar bo‘lib, ularning psixologik rivojlanishida quyidagi xususiyatlar ustuvor o‘rin tutadi:

Psixologik xususiyat	Pedagogik yondashuv
Tez ta’sirchanlik va emotsional holatga berilish	Tarbiyaviy suhbatlarda hissiy kontekstga urg‘u berish
Taqlidga moyillik	Shaxsiy namuna orqali tarbiya berish
O‘ziga e’tibor qaratilishiga ehtiyoj	Har bir o‘quvchining yutuqlarini qadrlash va motivatsiya berish
Guruhda o‘ynashga qiziqish	Rolli o‘yinlar va guruhiy mashg‘ulotlar orqali ijtimoiy tajriba berish

Bolalarning bu xususiyatlarini hisobga olmagan pedagogik yondashuvlar nafaqat tarbiyaviy samarasizlikka olib keladi, balki o‘quvchining ijtimoiylashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy ko'nikmalar - bu ijtimoiy xulq-atvorning o'zlashtirilgan elementlari bo'lib, ular ijtimoiy olam, o'zi va bu yorug' olamdagi o'rni, ijtimoiy o'zaro aloqalarni osonlashtiradigan xatti-harakatlar haqidagi

bilimlarga hamda insonga atrof-muhit bilan munosabatlarni samarali ravishda o'rnatish, o'z o'rnini belgilab olish va o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan harakatlarga asoslanadi hamda bu muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv va umuman olganda, ijtimoiylashishga yordam beradi.

Ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o'zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o'zgarishi bilan aniqlanadi. Ushbu hodisani ijtimoiy pedagogika sohasi o'rganishi bizga ma'lum. Ijtimoiy pedagogika bilan pedagogika sohasi o'rtasidagi farq ham aynan shunda. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblanadi, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlari hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya- bu bolalarning ijtimoiylashuvi va bolalarga ijtimoiy ta'lim va ijtimoiy tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika fanining tarmog'idir. Ammo ikkala fanning ham obyekti bola, uning ta'lim tarbiyasi, jamiyatda muhim shaxs sifatida tarbiyalanishi ikkala sohada ham o'z ifodasini topadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, xususan,

insonning ijtimoiy moslashuvi uning hamma narsani egallashga bo'lgan obyektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir obyektiv ehtiyoj -o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Bu hodisa shunda namoyon bo'ladiki, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega hislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi. SHunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). SHu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq. Ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir. moslashuv sub'ekt va ijtimoiy muhit faolliklarining yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj).

O'qituvchi boshlang'ich ta'limda markaziy figuradir. U faqat axborot beruvchi emas, balki shaxslararo munosabatlar, axloqiy qarashlar va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi yetakchi hisoblanadi. O'qituvchining nutqi, munosabati, kayfiyati hatto bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantiradi.

O'qituvchining asosiy vazifalari:

- Ijtimoiy vaziyatlar asosida muammoli topshiriqlar berish (masalan, "Agar do'sting sinfda o'zini yolg'iz his qilsa, nima qilarding?")

- O'zaro hamkorlikka asoslangan darslar tashkil etish;

- Har bir o'quvchining individual ijtimoiy ehtiyojini aniqlab, u bilan mos yondashuvda ishlash;

- Ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda bo'lish – bola ijtimoiy muhitini uyg'unlashtirish. Bu usul o'quvchilarda ijtimoiy vaziyatlarga to'g'ri munosabat bildirish, muloqot qilish, mas'uliyat his qilish kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi. Masalan:

- "Do'konchi va xaridor";
- "Kasalxona – shifokor va bemor";

- "Men va mening oilam" ssenariylari orqali bola o'zini turli ijtimoiy rollarda sinab ko'radi.

Ular bolaning mustaqil fikrlash, tanlov qilish, empatiya ko'rsatish va axloqiy qarorlar qabul qilish malakasini oshiradi.

Masalan:

- "Agar do'sting yomon ish qilsa, uni qanday to'xtatasan?"

- "Yangi o'quvchi sinfga keldi. U bilan qanday tanisharding?"

- Tarbiyaviy ertaklar va hikoyalar

Bola uchun ertak voqealari orqali axloqiy haqiqatlarni anglash osonroq va qiziqarliroq kechadi. Ertaklar orqali bola ijobiy qahramonlarga taqlid qiladi, yomon va yaxshi xatti-harakatlarni farqlashni o'rganadi.

Guruhiy faoliyatlar:

- Jamoaviy loyiha ishlari
- Mini-spektakllar tayyorlash
- Ko'rgazmalar tashkil etish Bular

o'quvchilar orasida do'stona muhit yaratadi, o'zaro muloqot, mas'uliyat, sheriklikni kuchaytiradi.

Ma'lumki, bola bilimga qiziqmasdan turib, o'qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Bolada o'z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil qilish, o'qishga

jalb etish, ilk yutuqlari uchun yuqorida barcha fanlar uzviy bog'liqlikni rag'batlantirish, ayniqsa ahamiyatlidir. tashkil qiladi va bola ijtimoiylashuvida

Bola ijtimoiylashuvi u yoki bu asosiy obyekt bo'lib hisoblanishini ta'kidlab jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan o'tgan edik. Fikrimiz dalili sifatida universal vositalar orqali amalga oshiriladi, yuqoridagi misollarni asos qilib olishimiz ularga: maishiy va gigiyenik yurish-turish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, qoidalari, insonni o'rab turuvchi moddiy boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy boshlang'ich sinf darsliklari asosida ishlab madaniyat unsurlari (alladan boshlab ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasi ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, boshlang'ich sinf chiqilib, bosqichma-bosqich amalga shuningdek oilada jazolash va mukofotlash oshiriladi. Ushbu tendensiyalar asosida uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi bolaning ta'lim-tarbiyasi ijtimoiylashuvini ko'p sonli munosabatlarimuloqot, o'yinlar, amalga oshirish imkoni kelib chiqadi. ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug'ullanish kiradi. Shuning uchun ham biz

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov, A. (2019). Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish. Tashkent: Xalq ta'limi nashriyoti.
2. Jumaev, T. (2018). O'qituvchining ijtimoiy-psixologik roli va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati. *Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali*, 3(15), 45-50.
3. Keldiyorova, Z. (2021). Ijtimoiy tarbiya: Yangi pedagogik yondashuvlar. Tashkent: Ta'lim va taraqqiyot.
4. Pavlova, N. (2016). Socialization of primary school children: The role of family and school. Moscow: Pedagogika.
5. Qodirova, M. (2020). Pedagogik metodlar va ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy shakllantirishdagi roli. Tashkent: Akademya nashr.
6. Shodiev, K. (2015). Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy faoliyatni tashkil etish. *O'zbekistondagi pedagogika va ijtimoiy psixologiya jurnali*, 1(8), 12-18.
7. Tursunov, B. (2022). Ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish va axloqiy tarbiya metodlari. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
8. Xolmirzaev, F. (2017). Pedagogik yondashuvlar va ijtimoiy shakllanish: Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.